



Neyrolingvistika. Neyrolingvistik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Rayhonova Gulnoza Odilovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy Universitetining

1-kurs magistranti

rayhonovagulnoza83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyrolingvistikaning kelib chiqishi, uning boshqa yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqligi, neyrolingvistika yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari, uning tilda qanday namoyon bo‘lishi va biz o‘zlashtirayotgan bilimlarimizni miyamizning qayerida saqlanishi xususidagi ma’lumotlar atroflicha bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: patopsixologiya, neyrolingvistika, afaziya, afaziologiya, lingvistik nuqsonlar.

Bugungi kunimizda barcha sohalarda rivojlanishlar o‘zining yuqori bir bog‘onasiga yetayotgan bir zamonda inson ongi va uning miya faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlar ham ortib bormoqda. Shu sababli, ko‘plab yangi bo‘limlar va tarmoqlar shakllanib bormoqda. Nutq patologiyasi, patopsixolingvistika bo‘limlarining bir tarmog‘i bu – neyrolingvistikadir.

Neyrolingvistika yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “neuron” – tomir, nerv, asab, “lingua” –til degan ma’noda tarjima qilinib, bu nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning mahalliy jarohatlanishi tufayli yuzaga keladigan nutqiy jarayondagi o‘zgarishlarni



o'rganadigan fan hisoblanadi. Bu tarmoq yoki fanning asosiy vazifasi turli ko'rinishdagi nutqiy buzilishlarni tashxislash va davolashdir.

Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida tilshunoslik negizida, neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keladi va u til sistemasini lisoniy muomilaning miya substrakti bilan birgalikda o'zaro aloqada o'rganadi.

Neyrolingvistika tarixiy jihatdan XIX asrda paydo bo'lgan. U to'g'risidagi dastlabki tadqiqotlar xususida 1836-yili Fransiyaning kichik bir shahrida tibbiy jamiyat yig'ilishlaridan birida oddiy vrach shunday nutq so'zlagan: " Bosh miyaning chap yarim shari zararlangan bemorlarning barchasida nutq buzilishlarini kuzatdim, lekin o'ng yarim shari zararlangan bemorlarning birortasida ham nutq buzilishi uchramagan. Demak, aynan bosh miyaning chap yarim shari nutq uchun mas'ul, ya'ni u yerda nutq markazlari joylashgan".¹

Afaziologiya neyrolingvistikaning tarixiy o'zagi bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu soha sezilarli darajada kengaydi, qisman miyani tasvirlashning yangi texnologiyalari va vaqtga sezgir bo'lgan elektrofiziologik usullarning paydo bo'lishi tufayli odamlar turli xil vazifalarni bajarishda miya faollashuvini ta'diklab o'tishadi. Neyrolingvistikaning tarixiy kelib chiqish jihatidan XIX asrda paydo bo'lgan afaziologiya asrini, miyaning shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan lingvistik nuqsonlarni o'rganish, shuningdek afaziologiya miya jarohatlarining tilni qayta ishlashga ta'sirini tahlil qilish orqali strukturani funksiyaga bog'lashga harakat qiladi. Miyaning ma'lum bir sohasi va tilni qayta ishlash o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi bo'lib o'tkazganlardan biri fransuz jarrohi Pol Broka bo'lib, u nutqda nuqsoni bo'lgan ko'plab odamlarni otopsiya qilgan va ularning aksariyatida chap frontal lobda hozirda Broka hududi deb nomlanuvchi hududda miya shikastlanishi borligini aniqlagan.² Bu xususida tajribalar ham o'tkazilgan. Maqolamga doir ikkita tadqiqotni amalga oshirdim.

¹ . Mark Daks. Fransiyaning oddiy vrachi nutqidan

² .Bahodirova F.B. "Neyrolingvistika tilshunoslikning yangi sohalaridan biri" maqolasidan.



Bunda birinchi tadqiqotim bundan 10 yil avval tog‘ga chiqib, ammo baxtsiz hodisa sabab miyasining chap qismi jarohatlangan 23 yoshli Shomurodov Mansur. Unga 10 yil muqaddam shifokorlar miyaning chap yarim sharining qisman shikastlanishi oqibatida nutqning ifodalanishiga qiynalishi xususida tashxis qo‘yishgan ekan. U bilan suhbat jarayonida o‘zgarlarning fikrini to‘liq anglay olishini ilg‘adim, biroq o‘zining fikrlarini ifodalab berishga bir qancha qiyinchiliklarga uchradi. Shunga qaramasdan u o‘z fikrini ifodalashga kuchli harakat etmoqda. Yana qiziqarli bir jarayonlardan biri, Shomurodov Mansurning ichki va tashqi emotsional holatlari bilan bog‘liqligidir. Ya’ni, u haddan jiyod xursand bo‘lgan vaqtida, kichik hajmli so‘zlarni to‘liq o‘z holatida, qiyinchiliksiz talaffuz eta oldi. Bu esa unga yana tuzala olish ya’ni sog‘lom fikrlay va gapira olish imkoniyati mavjud ekanligining bir belgisi deb o‘yladim. Bu afaziyaning broka qismining zararlanishi degan tashxisini qo‘ygan edim, shifokorlar ham xuddi shu fikrlarni aytishdi, mening fikrim yana bir bor tasdiqlandi.

Ikkinchi amaliy tajribam 58 yoshli Boltayeva Dilrabo ismli ayol bilan o‘tkazildi. U ayolga epilepsiya kasalligi qo‘yilgan ekan. Epilepsiya kasalligi asosan bolalar va kattalarda uchraydigan kasallik bo‘lib, bunda bemorda sekin va tushunarsiz nutq, nutqning yopishqoqligi va tinimsiz takrorlashlar, aniq nutqni kamaytiruvchi so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Shuningdek, men u ayolning nutqining ravon emasligini neyrolingvistika bilan ham bog‘lab ko‘rdim. Unga ko‘ra, ayol 25 yoshida oilali bo‘lgan bo‘lib, ko‘plab muammolar, urushlar, jismoniy jarohatlar uning miya faoliyatiga ham kuchli ta’sir etib, uning kichkina holatlarga ham jahli tez chiqishi ko‘rindi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, neyrolingvistika neyrologiya, psixologiya va lingvistikaning o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllangan bir jarayondir. Kuchli stress, asabiylashtiradigan holatlar, ichki va tashqi bosimlar, doimiy jismoniy va ruhiy jabrlar u ayolning ham asab tizimiga va miya qismlariga o‘z ta’sirini o‘tgazgan va natijada, Boltayeva Dilraboning kuchli epilepsiya holatiga tushishiga sabab bo‘lgan.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, neyrolingvistikadagi ko'plab ishlar psixolingvistlar hamda nazariy tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni sinab ko'rish va baholashni o'z ichiga oladi. Neyrolingvistika sohasi bugungi kunda ko'plab bahs-munozaralarga, tadqiqotlar o'tkazilishiga sabab bo'lmoqda va XXI asrning eng katta yutuqlaridan biri sifatida keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Caplan, David Waters, Gayle De, Jennifer Michuad, Amanda Reddy 2007. Learning syntactic Processing in Aphasia: Behavioral (Psycholinguistic) aspects. Brain and Language 101, 103-150.
2. Gardner, Howard. 1975. The Disrupted Consciousness: Man after brain injury. Vintage books.
3. Bahodirova F.B. "Neyrolingvistika tilshunoslikning yangi sohalaridan biri" maqolasi.
4. O'zME. Birinchi jildi. Toshkent. 2000. 197-bet.